Mendeleyev nomidagi RKTUning Toshkent shahridagi filialida “Rahbar va yoshlar” uchrashuvi bo‘lib o‘tdi

// 20 November 2025 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/mendeleyev-nomidagi-rktuning-toshkent-shahridagi-filialida-r



Yurtimizda yoshlarga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish, ularning fikrini eshitish va salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoit yaratish mamlakat taraqqiyotining muhim tarkibiy qismiga aylandi.



Shu maqsadda “O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan yosh mutaxassislar bilan ochiq muloqotni ta’minlashga qaratilgan “Rahbar va yoshlar uchrashuvi” loyihasi amalga oshirib kelinmoqda. “O‘zkimyosanoat” AJ raisi Odil Temirovning navbatdagi muloqoti Mendeleyev nomidagi RKTUning Toshkent shahridagi filiali talabalari bilan bo‘lib o‘tdi.



Tadbirda “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi a’zolari, Mendeleyev nomidagi RKTUning Toshkent shahridagi filiali rahbariyati va pedagoglari hamda 200 nafarga yaqin talaba ishtirok etdi. Uchrashuvda yoshlar o‘z taklif va savollari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Ayniqsa, talaba yoshlarning o‘qish bilan birga bevosita amaliyot jarayonlarida ishtirok etishi, kimyo korxonalarida amalga oshirilayotgan innovatsion loyihalarga ularni jalb qilish, malaka oshirish imkoniyatlari bo‘yicha qator taklif va tashabbuslar bildirildi.



Shuningdek, talabalar o‘quv dasturlarini ishlab chiqarishdagi bugungi zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda takomillashtirib borilishiga, kimyo sohasida biznesni yuritish uchun yaratilgan qulayliklar bilan qiziqdilar. Tarmoq korxonalari faoliyatini o‘rganish, ishlab chiqarishga ilg‘or innovatsion texnologiyalarni joriy etish kabi masalalar ham ishtirokchilar diqqat markazida bo‘ldi.



Tadbir so‘nggida har tomonlama faol bo‘lgan talabalar ilm olishga bo‘lgan intiluvchanligi va tashabbuskorligi yuqori baholanib, tashakkurnoma hamda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.






РХТУ
ИМ. Д.И. МЕНДЕЛЕЕВА



“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati